ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2024 / № 4

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 4

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 26.04.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 26.04.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 26.04.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA,
TO‘YCHIYEVA ZULEYXA HAMROQO‘LOVNA
Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”
asarida so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash 7

BERDIYEV XUSAN XOLNAZAROVICH
«Devon-u lug‘otit turk»dagi she’rlarda
hojib va radif san’atlari 13

УМУРҚУЛОВ ЗАФАР БЕКПЎЛАТОВИЧ
Қиёслаш инсон тафаккур тарзининг маҳсули 16

ESHBOYEV QAHRAMON BAKIR O‘G‘LI
So‘zlararo darajalanish o‘quv lug‘atida so‘zlarga izoh berish 20

NAVRUZOVA MUYASSAR GAYBULLAYEVNA
Kasallik nomlarining onomasiologik, semantik ifodasi 24

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Antroponimlarning lingvomadaniy xususiyatlari
(O‘zbek xalq ertaklarida mavjud antroponimlar misolida) 28

ДЖАББАРОВА ШОИРА БАЛТАЕВНА
Медиа тилида муқобилсиз лексика таснифлари: назарий ёндашув 33

KULTAYEVA FAZILAT BAXTIYAROVNA
Ergonimlarning morfologik derivatsiyasi xususida 36

HAYDAROVA KAMOLA DAVRANOVNA
O‘zbek, rus va ingliz tillarida meva nomlarining qiyosiy-chog‘ishtirma tahlili 39

TERMIROVA KAMOLA
Ziravor atamalar va ularning lug‘atlarda ifodalanishi 43

TURDIMURODOV SIROJIDIN ESHQOBILOVICH,
JABBOROVA SEVARA BAXTIYOR QIZI
Badiiy matnda evfemik birliklar tahlili 50

SOATOVA YULDUZ
Bobur she’riyatida ayol qaddi-qomatini ifoda etuvchi lingvistik vositalar 53

ТОЛИЕВА ШОИРА ИЛХОМОВНА
Лингвистик экспертиза методларининг тамойиллари 57

AVRIDDINOV JOBIR MUSULMON O‘G‘LI
Sharq olimlarning «Zufongo‘yo va Jahonpo‘yo» lug‘atida ilmiy qarashlari 59

ДАВЛЯТОВА ЭЛЬВИРА МУРАДОВНА
Парадигматические свойства иноязычных лексических единиц
в русском и узбекском языках (на материале интернет медиа) 61

МУНДАРИЖА

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Концепт «богатство» во фразеологизмах
и паремиях узбекского и русского языков 64

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Эволюция лексических единиц обозначающих мужчин и женщин 67

QULMAMATOVA MUATTAR OTABEK QIZI
Ingliz va o‘zbek maqollarida “boylik” konseptining chog‘ishtirma tadqiqi 70

FARZANA NABI,
ABDULLA XUDAYQULOV ESHQUVVATOVICH
Official documents in dari language, its translation challenges 73

ЖАББАРОВА НАРГИЗА ИСЛАМЖАНОВНА,
РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Влияние гендерной лексики на сознание и поведение людей 76

ADABIYOTSHUNOSLIK

ARSLONOV ABDIMUROD KARAMATOVICH
“Qissasi Rabg‘uziy”da xalq og‘zaki ijodi syujetlari va motivlari 80

КАЗАКОВА ГУЛАСАЛ КУРАЛОВНА
Эссе жанрида шахс концепциясининг бадиий-публицистик талқини 82

LOLAYEV SHUXRAT ALIQOBIL O‘G‘LI
Turkistonda “Usuli jadid” maktablarining shakllanishi va ahamiyati 84

USMONOVA MOHIDIL LAZIZ QIZI
Ravnaq g‘azallari tabdilidagi matniy tafovutlar 87

TA’LIM

ABDUQAYUMOVA NARGIZA RAIMOVNA
Bo‘lajak rus-tili o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga
tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish metodikasi 90

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2024; 4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KASALLIK NOMLARINING ONOMASIOLOGIK, SEMANTIK IFODASI

Navruzova Muyassar Gaybullayevna,
Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Kasallik organizmda bir necha o'zgarishlarning kelib chiqishi bilan sog'liqning buzilish holatidir. Qadimda kasalliklar sababi, asosan, odamlar iste'mol qiladigan suv, oziq-ovqat va havodagi infeksiyalar bilan bog'liq bo'lsa, hozirgi jamiyatda yuqumli kasalliklar o'rnini surunkali kasalliklar egallagan. Qadim zamonlardan inson hayoti, uning sog'ligini saqlash, kasalliklarning oldini olish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Tibbiyot (meditsina, tabobat) ana shunday masalalar bilan shug'ullangan.

Kasallik – bu ichki va tashqi faktorlar oqibatida inson organizmida yuz beradigan patalogik jarayon sanaladi. Kasalliklarning turlari juda ham ko'p bo'lib, ularning kelib chiqishi va davolanish usullari ham turlichadir. Bu haqida Abu Ali ibn Sinoning beshta tomdan iborat dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan "**Tib qonunlari**" asarida:

1-tom: tibbiyot ilmi – o'tchil va surunkali kasalliklarning ta'rifi, ularning tashxisi, davolanishi, jarrohlik;

2-tom: tabiiy giyohli dorilar haqida hikoyalar;

3-va 4-tomlar: inson tanasidagi kasalliklar, a'zolardagi sinishlarni davolash bo'yicha tavsiyalar;

5-tom: Ibn Sino tarafidan mustaqil tayyorlangan murakkab tarkibli dorilar xususiyatining ta'rifi hamda Yevropa va Osiyodagi qadimgi tabiblarning yozuvlaridan manba sifatida foydalanilganligi haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

Abu Ali ibn Sino "**Tib qonunlari**" asarida keltirgan ayrim birliklarni izohga tortamiz. Suyak atamasi izohli lug'atlarda quyidagicha ta'riflanadi: Suyak - odam va umurtqali hayvonlar skeletining asosiy qismi. Suyak to'qimasi biriktiruvchi to'qimaning bir xili. Suyak bo'g'imlar, boylamlar, muskullar va o'ziga birikkan paylar bilan birga tayanch harakat apparatini hosil qiladi. Suyak semasini ifodalovchi birliklar mineral moddalardan tarkib topgan.

Ibn Sino o'z asarida ushbu atamani bir necha xilini turli o'xshatishlar ya'ni metaforik birliklar orqali izohlab o'tgan.

Suyak semasini ifodalovchi birliklar

Kunjutsimon suyak – barmoqlardagi bo'g'inlarning oralari yaxshiroq mahkamlanish uchun kunjutsimon suyak deb ataladigan kichik suyaklar bilan to'ldirilgan.

Xanjarsimon suyak – ko'krak suyagining quyi qismiga keng tog'aysimon suyak yopishib turadi. U tog'ayning oxirgi qismi yumaloqdir. Chunki xanjarga o'xshaydi va me'daning og'zini himoya qilishi uchun xizmat qiladi.

Kubsimon suyak – tashqi tomondan esa kubsimon suyak bilan qo'shiladi. Xohlasang alohida suyak deb, xohlasang oyoq panjasi tovon qismining to'rtinchi suyagi deb hisoblash mumkin.

Qayiqsimon suyak – tovon bilan orqadan va oldindan oyoq panjasining tovon qismidagi uch suyak orqali birikadi.

Yonbosh suyak – dumg'azaning yonida, o'ng va so'l tomonlarda, ikkita suyak bor. Ular bir-biri bilan harakatsiz bo'g'inlar orqali qo'shilganlar. Ular yuqoridagi suyaklarga asos bo'ladilar, ostki suyaklarni esa ko'tarib turadilar.

Lomsimon suyak – qalqonsimon tog'ay nomsiz tog'ayga yaqinlashishi va bir-biridan uzoqlashishlari natijasida hiqildoq ochilib, yopiladi. Hiqildoq va uning old yaqinida uchburchak shaklida bir suyak, bo'lib, yunoncha alfavitdagi Lom harfi yozilishiga o'xshatib lomsimon suyak deb ataganlar.i.

Bundan tashqari ushbu asarda hozirgi kunda iste'molda qo'llanilmayotgan bir necha tibbiy birliklar borligini aniqladik.

Suda – **(**bosh og'rig'i)- bosh a'zolarida bo'ladigan og'riq ;

Shaqiqa – boshning bir tomonida, asosan, o'rta qismida qo'zg'aladigan og'riq;

Temir qalpoq – (bayza, xuda) - butun boshni o'rab oluvchi og'riq. Butun boshni o'rab turadigan harbiy temir qalpoqqa o'xshatib shunday ism bilan atalgan;

Litarg'us – (sovuq sarsom)- tarjimasi unutish. Kalla suyagining ichkarisida bo'ladigan balg'amli shish. Bu balg'amdan vujudga keladigan sarsomdir;

Tutqanoq – nafsoniy a'zolarning sezish va harakat ishlariga hamda tik turishiga to'sqinlik qiladigan kasallik;

Sakta – miya qorinchalarida, sezuvchi va harakat-

lantiruvchi ruh yo‘llarida kuchli tiqilma paydo bo‘lishi sababli a’zolarning sezgisiz va harakasiz bo‘lib qolishi;

Laqva (yuz falaji) – bu yuz a’zosiga tegishli kasallik bo‘lib, uning natijasida yuzning bir tomoni g‘ayritabiiy ravishda bir tarafga tortiladi, yuzning tabiiy shakli o‘zgaradi, lab va shu tarafdagi qovoqlar yaxshi yumilmaydi;

Qaltiroq - tana a’zolariga tegishli kasallik bo‘lib, u harakat qildiruvchi quvvatning mushaklarni uzluksiz harakat qildirishdan ojizligi;

Ramad – ko‘zning yallig‘lanish kasalligi;

Taxassur – ko‘zni qitiqlovchi va qizartiruvchi sabablardan paydo bo‘ladigan qizishi va ho‘llanib turishi;

Zaturril – (o‘pka yallig‘lanishi)- o‘pkada bo‘ladigan issiq shishdan iborat bo‘lib, goho dastlabdanoq o‘zi paydo bo‘ladi.

Xafaqon – yurakda paydo bo‘ladigan uchganga o‘xshash bir harakat. Uning sababi yurakka aziyat beruvchi har bir narsa bo‘lib, u yurakning o‘zida, yo uning g‘ilofida bo‘ladi, yoki yurakka u bilan yonma-yon turgan va hamkor a’zolardan keladi[1].

Bu birliklarning har birini hozirgi kunda tibbiyot fanida sinonimik terminlari mavjud. Ammo kelgusida tibbiy birliklar lug‘ati yaratilishida lug‘atshunoslar uchun manba vazifasini o‘taydi.

Ibtidoiy odamlar o‘zlari uchun hali turar-joy qurish, kiyim tikish va ovqat pishirishni bilmay turib, ba’zi kasallik holatlarida muolaja qilishni bilib olganlar. Buni o‘sha ibtidoiy odamlarning yashash sharoitlari taqozo etgan. Ularning yashash sharoitlari esa juda og‘ir va mashaqqatli bo‘lgan. Ibtidoiy odamlar uy-joysiz, o‘rmonlarda yarim yalang‘och va ko‘pincha och yashab, ko‘p qiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar. Buning natijasida ko‘p kasalliklarga duchor bo‘lganlar, yirtqich hayvonlar bilan to‘qnashib, tan jarohatlari olganlar.

Tabiiyki, bunday holatlarda kishilar kasallikdan qutulish va tan jarohatlarini davolashga intilganlar. Natijada, dastlabki oddiy muolaja usullari ishlab chiqilgan. Bu haqda ulug‘ Gippokrat bunday deb yozgan edi: “Hayotning o‘zi kishilarni tabiblik san’atini izlab topishga majbur etgan”. Tibbiyotning kelib chiqishi jarayonini har taraflama o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, “birinchi tabib” organizmning o‘zi ekan, ya’ni organizmning o‘zi birinchi bo‘lib kasallikga qarshi kurasharkan. Buni quyidagi oddiy misoldan ko‘rish mumkin: agar organizmga tashqaridan biror narsa, masalan zirapcha kirib qolsa, uning atroflarida qon tanachalari (leykositlar) to‘planib, zirapcha bilan birga kirgan mikroblarni yutib, yo‘q qila boshlaydi. Natijada, organizm bu mikroblardan qutiladi. Organizmning kasalliklarga qarshilik ko‘rsatish xususiyati qadimgi Sharq hakimlariga ham ma’lum bo‘lgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino “Odam tanasi hamma vaqt kasallikdan qutilishga intiladi”, deb yozgan edi. Haqiqatdan kasalliklar inson tanasi va ruhiyati bilan bog‘liq.

Masalan, tibbiyot tilida *variola* deb nomlanuvchi *suvchechak* kasalligi qadimda juda ko‘p tarqalgan yuqumli, epidemik kasallik hisoblangan. Yuzda kichik toshmalar paydo bo‘lishi kasallikning o‘ziga xos belgisidir. Shuning uchun xalq orasida bu kasallik *gul* deb nomlangan. Shunga o‘xshash davosi uzoq kechadigan kasalliklar evfemik birliklar bilan almashinishi nutqda ko‘p uchraydi.

Darhaqiqat, turli kasalliklar ruhiyatda u yoki bu o‘zgarishlarni vujudga keltiradi, bu esa bemorlar bilan bo‘lgan muloqotda o‘z ifodasini topadi. Inson aqliy va fiziologik faoliyatining mevasi – nutq orqali bu muloqot namoyon bo‘ladi. Zamonaviy tibbiyotda shifobaxsh omil sifatida so‘zning ahamiyati yanada ortdi. Turli davrlarda nutq madaniyatiga doimo katta e’tibor bilan qaralgan. Nutq madaniyatiga, bemor bilan muloqot san’atiga har doim ham mohirona amal qilish oson emas. Bu tibbiyot xodimidan yuksak ruhiy manbani, yuqori madaniyatni, o‘ta nozik darajadagi sezgirlikni, bilimni, matonatni va hatto ba’zida aktyorlik darajasidagi mahoratini talab qiladi.

Qadimgi hind tabibi Sushruta: “So‘z muloyim, yoqimli va umidvor qila oladigan, ruhga taskin berguvchi bo‘lmog‘i lozim”, deb yozgan edi. Bu fikrlar hozirgi zamonda ham dolzarbdir. Ayniqsa soha mutaxasislari bo‘lgan shifokorlar uchun bu juda muhim omil sanaladi.

O‘zbek xalqi madaniyatida shifokorlik kasbi “sharaf”, “mas’uliyat”, “fidokorlik”, “mehnatsevarlik” kabi sifatlar bilan ta’riflanadi. Ularga katta ishonch bildirilib, hurmat qilinadi. Tarixdan ma’lumki, nihoyatda tajribali, yetuk, o‘qimishli tabiblarni xalqimiz hakim deb atagan. Buqrot (Gippokrat), Jolinus (Galen), Abu Bakr ar Roziy, Abu Ali ibn Sino kabi hakim-tabiblarlar mashhurdirlar. Hakimlar tibbiy bilimlarning turfa xilligi va kasallik turlarining xususiyatlariga qarab sohalar bo‘yicha turkumlanadi. Jahon etnologiya fanida xalq tabobati bilan shug‘ullanuvchilarni ikkita katta guruhga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi: giyohlar bilan davolovchi tabiblar va afsunlar yoki so‘z sehri bilan davolovchi tabiblar. Tabiblarni davolash usuliga qarab quyidagi guruhlarga ham ajratish mumkin: “ma’naviy tabiblar” (shomon, baxshi), “tana xastaliklari tabiblari” folbinlar, “shifobaxsh giyohlar bilan davolovchilar” (dunyoviy bilimga asoslangan tabiblar), “ilohiy, g‘ayritabiiy kuchlar asosida davolovchilar”. Ular xalq orasida davolash usullariga qarab:

[1] Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1991. - 354 b.

baxshi, folbin, azaimxon, sadqoqchi, mulla, duoxon, parixon va h.k. kabi nomlar bilan ataladi.

Dori-darmonlar bilan davolovchi tabobat yillar davomidagi izlanishlar, amaliy tajribalar yordamida insonni darddan forig‘ etuvchi usullar va tavsiyalarni o‘zida jamlagan. Bu turdagi tabiblar faqatgina tabiiy vositalar asosida dori tayyorlab kasallarni davolaydi. Afsun va duolar hamda so‘z sehri bilan davolovchilar narsa va hodisalarni ilohiylashtirib, undan shifo tilash orqali davolashadi.

Muhokamalar va natijalar. Xalq tilida aksariyat kasalliklarning nomi og‘rigan, xastalangan, kasallikka chalingan tana a’zolarining nomi bilan bog‘lab aytilishi kuzatiladi. Jumladan, bosh og‘rig‘i, quloq og‘rig‘i, til og‘rig‘i, tish og‘rig‘i, oyoq og‘rig‘i, bel og‘rig‘i, qo‘l og‘rig‘i, oshqozon og‘rig‘i kabi.

Bundan ko‘rinadiki, somatik so‘zlar, ya’ni inson tana a’zolari yoki ularning qismlari nomi tibbiy atamalar tarkibida alohida o‘rin tutadi va ularning shakllanishida asos sifatida xizmat qiladi.

Tilda inson a’zolari (bosh, oyoq, quloq, tish, qo‘l, yurak, o‘pka, oshqozon va hokazolar) bilan bog‘liq kasallik nomlari alohida leksik tizimni tashkil qiladi.

M.Gadoyeva tadqiqotida kasalliklar va ularni davolovchi kishilarning nomi tarkibida ham somatizmlar uchrashi (masalan: *yurak o‘ynog‘i, yurak og‘rig‘i* uni davolovchi kishi *yurak soluvchi, yurak ko‘taruvchi, dilbardor* deb nomlanishi, tomoq og‘rig‘i kasalini davolovchi *gulbardor, tomoq bosuvchi* deb atalishi), q*o‘l yarasi, jigar serrozi, o‘pka raki, oshqozon raki, ichak yarasi* kabi birikmalar ham tibbiyot atamalari bo‘lib, somatizmlar qo‘shilishidan hosil qilinishi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Albatta, bu fikrlarni qo‘llash mumkin[1].

Bosh bilan bog‘liq kasalliklar: boshog‘riq, bosh yorilishi. Bosh insonning asosiy tana a’zolaridan biri bo‘lgani uchun uning hamisha omon bo‘lishi olqishlarda “Boshing omon bo‘lsin”, “Boshing toshdan bo‘lsin” deya alqansa, qarg‘ishlarda “Boshing yorilsin”, “Boshing darddan chiqmasin” deb aytiladi.

Bosh so‘zi inson tanasining bo‘yindan yuqorigi, oldingi qismi[2] bo‘lib, “kalla”, “sar” so‘zlari bilan ham yuritiladi. Shuning uchun xalq tilida “kallaog‘riq”, “dardisar” so‘zlari ham kasallik nomlari sifatida uchraydi.

Ko‘z bilan bog‘liq ko‘z oqishi, ko‘zga gul (gulday qizil dog‘) tushishi, ko‘z yumilib qolishi, ya’ni ko‘rmay qolishi, ko‘z oqarishi, ko‘z qizarishi kabi kasallik turlari bor. Shuning uchun ko‘pincha xalq qarg‘ishlarida yomonlarga shu kasalliklarni tilash motivi yetakchilik qilganini kuzatish mumkin: “*Ko‘zing oqib tushsin”, “Ko‘zingga gul tushsin”, “Ko‘zing ko‘r bo‘lsin”* kabi. Bunday qarg‘ishlar insonning ko‘rish imkoniyatiga zarar etishini tilash maqsadi bilan bog‘liq. U bilan olqishlarda esa “Ko‘zingning nuri ketmasin”, “Ko‘zing doim ravshan bo‘lsin” deyiladi.

Xalq topishmoqlarida ham ko‘zga shunday ta’rif beriladi:

Qarichdan yaqin,
Osmondan uzoq;
Qushday ildam uchar,
Qora yerning bag‘rin quchar.

(Topishmoqlar. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981 B 43.)

Qo‘l bilan bog‘liq kasalik nomlari: qo‘li sinmoq, qo‘li burchimoq, qo‘li qayrilmoq, qo‘li qaltis yemoq, qo‘li akashak bo‘lmoq, qo‘li qaltirashi. Shuning uchun ayrim qarg‘ishlarda yomonlarga shu kasallikni ravo ko‘rish maqsadida “*Qo‘ling sinsin”, “Qo‘ling kesilsin”, “Qo‘ling akashak bo‘lsin”, “Qo‘ling shol bo‘lsin”* deb aytiladi. Chunki qo‘li singan kishi biror-bir narsani olish, berish, ushlash, tutish, uzatish harakatidan mahrum bo‘lib, qiynaladi, o‘z-o‘zini boshqarishi qiyin bo‘ladi.

“Qo‘ling uzun bo‘lsin”, “Qo‘lingni qayerga uzatsang, yetsin” olqishlari garchi ko‘chma ma’noda insonning iqtisodiy imkoniyatlari kuchli bo‘lishini tilash maqsadini ifoda etsa-da, aslida ayrim insonlarda uchraydigan “qo‘li kaltalik” kasalligiga ham implisit (yashirin) ishora qiladi.

Oyoq bilan bog‘liq kasalliklar: oyoq sinishi, oyog‘ini bosolmaslik, oyoq og‘rig‘i, oyoq burchishi, oyog‘i qaltis yeyishi, oyog‘i shol bo‘lishi, oyoq uvishishi, tovon yorilishi, tizza qaltirashi, tizza bukilmasligi va boshqalar. Oyoq ham insonning eng muhim tana a’zosi. Usiz inson yurishga, tikka turishga, bordi-keldiga qiynaladi. Shuning uchun xalq qarg‘ishlari orasida *“Oyog‘ing sinsin”, “Oyog‘ing shol bo‘lsin”, “Oyog‘ing qirqilsin”, “Oyog‘ing akashak bo‘lsin” kabilar uchraydi.*

Qorin bilan bog‘liq kasalliklar: qorinog‘riq (qornog‘riq), ichburug‘, ichketma, tirriq, chichqoq, ishkamdard singari.

Bel bilan bog‘liq kasalliklar: belog‘riq, beli bukchayib qolmoq, beli sinmoq, miyonog‘riq kabi. Bel insonning asosiy tayanch organi bo‘lgani uchun ko‘pincha yomon odamlarga “*Beling sinsin”* qarg‘ishi aytiladi. Xuddi oyoq kabi bel sinsa ham, inson tik turish, yurish singari zarur harakatlaridan mahrum bo‘ladi.

O‘pka bilan bog‘liq kasalliklar: sil, o‘pka shamollashi.

Yurak bilan bog‘liq kasalliklar: yurakog‘riq, dilbejo, dilxasta, yurak o‘ynog‘i, yurakqisma (yuragiqisma) va boshqalar. Bu misollar orqali yurak so‘zining

[1] Гадоева М.И. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида): Филология фанлари доктори (DSc)... диссертация. – Бухоро, 2022. – Б.63.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. Тузатилган иккинчи нашри. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.332.

fors-tojikcha dil so‘zi bilan o‘zaro sinonim sifatida qo‘llanishi ayonlashadi.

Quloq bilan bog‘liq kasalliklar: quloq og‘riq, qulog‘i og‘ir (kar). Qarg‘ishlarda insonga eshitish imkoniyati chegaralanishini xohlab “Qulog‘ing tom bitsin” qarg‘ishi aytiladi.

Tomoq bilan bog‘liq kasalliklar: tomoqog‘riq, dardi gul tomoq qichishi, tomoq qirilishi.

Til bilan bog‘liq kasalliklar: tilog‘riq, soqov, gung, til yorilishi.

Iyak bilan bog‘liq kasalliklar: iyak tushishi, iyakning joyidan siljishi.

Soch bilan bog‘liq kasalliklar: soch to‘kilishi, kallik.

Tish bilan bog‘liq kasalliklar: tishog‘riq, tish to‘kilishi, tish sinishi.

Qosh bilan bog‘liq kasalliklar: qosh to‘kilishi.

Burun bilan bog‘liq kasalliklar: burun oqishi, tumov, burun bitishi.

Lab bilan bog‘liq kasalliklar: lab yorilishi.

Og‘iz bilan bog‘liq kasalliklar: og‘izog‘riq.

Oshqozon bilan bog‘liq kasalliklar: oshqozonog‘riq, me’da buzilishi, oshqozon buzilishi.

Bundan xalq tilidagi kasallik nomlarining makro va mikro leksik-semantik maydonlarini hosil qilishi anglashiladi. Ularni mikro leksik-semantik maydonlarga ajratishda insonning qanday xatti-harakati tizimiga shikast yetishiga qarab quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Inson aqliy va ruhiy, asab tizimi, fikrlashi, o‘ylashi, qarorlar qabul qilishi jarayonining buzilishini ko‘rsatuvchi kasalliklar: quyonchiq, jinni, aljiragan...

2. Ko‘rish harakati bilan bog‘liq kasalliklar: ko‘r, shabko‘r, ko‘zi butov, ko‘ziga gul tushmoq, ko‘zi oqarmoq, ko‘zi qizarmoq, ko‘zi xiralashmoq, ko‘zidan nur ketmoq kabi.

3. Eshitish harakati shikastlanishi bilan bog‘liq kasalliklar: kar, qulog‘i og‘ir, quloqog‘riq kabi.

4. Hid va ta’m bilish harakatini kamaytiruvchi kasalliklar: burun bitishi, tumov, til og‘riq kabi.

5. Yeyish harakatini qiyinlashtiruvchi kasalliklar: til og‘riq, og‘iz og‘riq, tomoq og‘riq, iyak tushishi kabi.

6. Tishlash, chaynash harakatini buzuvchi kasalliklar: tish og‘riq, til og‘riq, og‘izog‘riq, iyak tushishi kabi.

7. Olish-berish harakatini cheklovchi kasalliklar: qo‘l sinishi, qo‘l sholligi kabi.

8. Borish-kelish, yurish harakatini cheklovchi kasalliklar: oyoq sinishi, oyoq sholligi kabi.

9. Hazm qilishni qiyinlashtiruvchi kasalliklar: oshqozonog‘riq, ichak buzilishi, ichburug‘ kabi.

Kasallik nomlari bu tarzda alohida-alohida o‘rganilsa ham, ular inson tana a’zolarining harakatlanishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi va bir-biriga bog‘lanib ketadi. Shuning uchun ular tilning leksik tizimida alohida mikromaydon sifatida qabul qilinib, muayyan lug‘aviy ma’noviy guruhlar sinfi sifatida e’tirof etiladi. Qizig‘i shundaki, somatizm tarkibli birikmalarning sifatlari mavjudlik miqdoriga ko‘ra bir yoki ikki raqami bilan bog‘lansa-da, baribir ular xuddi bittadek aytiladi: ko‘zi og‘rimoq (holbuki, ko‘z ikkita, uning har ikkalasi ham og‘riganmi yoki o‘ng yoxud chapimi, noma’lum). Bunday fikrni tishi og‘rimoq (tishlar o‘ttiz ikkita), oyog‘i, qo‘li, o‘pkasi (o‘ngimi yo chapimi) og‘rigan deganda, anglash mumkin.

Rezyume. The article describes the medical units that are part of the vocabulary of the Uzbek language, their content, their formation over a long historical period, as well as the macro- and microlexical-semantic fields of disease names in the vernacular language. Human behavior is divided into groups depending on the damage to the body. The contents of units related to bone structure found in Ibn Sina’s Laws of Medicine and medical units not currently in common use are also explained.

Резюме. В статье описаны медицинские единицы, входящие в состав лексики узбекского языка, их содержание, их формирование в длительный исторический период, а также макро- и микролексико-семантических полей названий болезней в просторечном языке. Поведение человека делится на группы в зависимости от повреждения организма. Также поясняется содержание единиц, связанных со строением кости, встречающихся в «Законах медицины» Ибн Сины, и медицинских единиц, не используемых в настоящее время в потреблении.